



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II - QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna Atoev Navro'zbek Rinatovich	



YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI

**Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Makroiqtisodiyot kafedrası PhD, dotsent v.b.

ORCID: 0009-0007-0124-0291

E-mail: azi07071998@gmail.com

Atojev Navro'zbek Rinatovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Tel.: +998 91 075 14 63

E-mail: standoffcnx@gmail.com

Annotatsiya. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida barqaror rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot tamoyillari jahon iqtisodiyotining transformatsiyalashuviga tobora kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Yashil iqtisodiy rivojlanishning asosiy elementlaridan biri yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi tarmoqlarda bandlikni ta'minlash va yangi yashil ish o'rinlarini yaratish hisoblanadi. Ushbu maqolada jahon amaliyotida yashil ish o'rinlarini tashkil etishning zarurati va uning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, yashil ish o'rinlarini tashkil etishda eng samarali va barqaror iqtisodiy tarmoqlar xalqaro tajriba asosida o'rganilib, istiqbolda yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari baholangan. Bundan tashqari, O'zbekistonning barqaror rivojlanishida yashil ish o'rinlarining o'rni va istiqbollari tahlil qilinib, tegishli xulosalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqaror iqtisodiy rivojlanish, yashil iqtisodiyot, bandlik, yashil ish o'rinlari, transformatsiyalashuv, iqtisodiy tarmoqlar, yashillashtirish, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, qayta tiklanuvchi energiya, resurs samaradorligi.

Abstract. At the current stage of economic development, the principles of sustainable development, environmental protection, and the green economy are increasingly driving the transformation of the global economy. One of the key components of green economic development is the creation of employment and new green jobs in sectors operating under the principles of the green economy. This article analyzes the necessity of establishing green jobs and their economic significance based on international practice. In addition, the study examines the most efficient and sustainable economic sectors for creating green jobs through international experience and assesses the prospects for generating new employment opportunities in the future. Furthermore, the role and prospects of green jobs in the sustainable development of Uzbekistan are analyzed, and relevant conclusions and practical recommendations are proposed.

Keywords: sustainable economic development, green economy, employment, green jobs, economic transformation, economic sectors, greening, International Labour Organization (ILO), renewable energy, resource efficiency.

Аннотация. На современном этапе экономического развития принципы устойчивого развития, охраны окружающей среды и зелёной экономики оказывают всё более значительное влияние на трансформацию мировой экономики. Одним из ключевых элементов зелёного экономического развития является обеспечение занятости и создание новых зелёных рабочих мест в отраслях, функционирующих на принципах зелёной экономики. В данной статье проанализированы необходимость создания зелёных рабочих мест и их экономическое значение на основе мирового опыта. Кроме того, на основе международной практики исследованы наиболее эффективные и устойчивые отрасли экономики для создания зелёных рабочих мест, а также оценены перспективы формирования новых рабочих мест. Также проанализированы роль и перспективы зелёных рабочих мест в обеспечении устойчивого развития Узбекистана, сформулированы соответствующие выводы и практические рекомендации.

Ключевые слова: устойчивое экономическое развитие, зелёная экономика, занятость, зелёные рабочие места, экономическая трансформация, отрасли экономики, экологизация, Международная организация труда (МОТ), возобновляемая энергетика, ресурсоэффективность.



KIRISH

“Yashil” ish o‘rinlari yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda juda muhim omil hisoblanadi, chunki ular nafaqat tabiatni muhofaza qiladi, balki iqtisodiyotning rivojlanishiga ham hissa qo‘shadi. “Yashil” ish o‘rinlari tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ifloslanishni kamaytirish va iqlim o‘zgarishining ta‘sirini kamaytirishga qaratilgan. Shuningdek, ular qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda asosiy ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, yashil ish o‘rinlari odamlar uchun toza va sog‘lom muhit yaratish orqali hayot sifatini yaxshilaydi. Umuman olganda, ular barqaror va yorqin kelajakni qurishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida barqaror rivojlanish tamoyillari keng targ‘ib qilinmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va yashil ish o‘rinlari tashkil etish borasida qarorlar va turli strategiyalar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” qabul qilindi. Unda yashil iqtisodiyot sohasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar belgilab qo‘yildi. Shuningdek, yashil ish o‘rinlarini rivojlantirishning “kadrlar malakasini oshirish, energiya va resurslarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish madaniyatini shakllantirish; kasbiy ko‘nikmalarga “yashil” iqtisodiyotning rivojlanishi bilan qo‘yiladigan yangi talablarni hisobga olgan holda tarmoqlar xodimlari, shu jumladan rahbar va muhandislar tarkibi xabardorligi va malakasini oshirish; kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash davlat ta‘lim dasturlarini ishlab chiqishda “yashil” iqtisodiyot asoslarini hisobga olish”[1] bandlari belgilab qo‘yildi. Bundan tashqari, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yashil iqtisodiyotga va barqaror rivojlanishga qaratilgan bir qator maqsadlar belgilab qo‘yilgan. Xususan, 51-maqsad “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish”; 65-maqsad “Yashil energiya” texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste‘molini kamaytirish” va shu ma‘nodagi boshqa iqlim o‘zgarishi, “Yashil makon” dasturini amalga oshirish, tabiatni muhofaza qilish kabi maqsadlar ta‘kidlab o‘tilgan[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi qarorida ilg‘or xalqaro standartlar va xorijiy tajriba asosida O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasi ishlab chiqilganligi haqida ta‘kidlab o‘tilgan. Ushbu qarorda 2025-yildan boshlab har 5 yilda Parij bitimi doirasida iqtisodiy va ijtimoiy ta‘sirni baholash asosida iqlim o‘zgarishi oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha milliy majburiyatni belgilash; iqtisodiyot, shu jumladan sanoat tarmoqlarida issiqxona gazlari ajratmalari qisqartirilishini muvofiqlashtirish va tartibga solish; issiqxona gazlari ajratmalari qisqartirilishining milliy reyestrini joriy etish, qisqartirilgan issiqxona gazlarining milliy va xalqaro darajadagi savdosini muvofiqlashtirish, bunda birinchi navbatda milliy manfaatlarni inobatga olgan holda xalqaro majburiyatlar bajarilishini ta‘minlash; tarmoq bo‘yicha issiqxona gazlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash, ularning shaffofligini ta‘minlash va boshqa ma‘lumotlar bilan integratsiya qilish hamda xatlov hisobotini tayyorlashda ishtirok etish va shu kabi yana bir qator bandlar belgilab qo‘yilgan[3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jennifer Winter va Michal C. Moore o‘zlarining “The ‘Green Jobs’ Fantasy”[4] mavzusidagi maqolasida yashil ish o‘rinlari haqidagi siyosiy da‘volarning tanqidiy bahosi, yashil bandlikning siyosiy muammo uchun yagona yechim sifatidagi cheklovlari hamda siyosiy va‘dalar bilan iqtisodiy va ekologik haqiqatlar o‘rtasidagi tafovutni tahlil qilishgan.

Leigh Hendrix, Nitzan Goldberger va Sarah Ladislav Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazining 2010-yil hisobotidagi “Understanding ‘Green Jobs’”[5] maqolasida “yashil ish o‘rinlari” tushunchasining mazmuni, yashil ish o‘rinlari yaratishning mavjud imkoniyatlari, ularni o‘lchashdagi qiyinchiliklarni tahlil qilgan holda yashil ishlar keng ko‘lamli iqtisodiy tiklanish uchun samarali yo‘l bo‘la oladimi, degan savolga javob berishga harakat qilishgan.

Ana-Maria Boromisa, Sanja Tišma va Anastasya Raditya Lezaić o‘zlarining “Green Jobs for Sustainable Development”[6] kitobida yashil ish o‘rinlari bilan barqaror rivojlanish o‘rtasidagi amaliy bog‘liqlik, sohalar bo‘yicha misollar (qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish, barqaror qishloq xo‘jaligi), siyosiy vositalar va mamlakatlar qanday qilib yashil ish o‘rinlarini rivojlantirishi mumkinligini ko‘rsatadigan amaliy misollarni tahlil qilishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida yashil ish o‘rinlari tushunchasining nazariy asoslari va tamoyillari, yashil ish o‘rinlari tashkil etishning xalqaro tajribasi hamda istiqbolli iqtisodiy tarmoqlar tahlil qilindi. Maqolani shakllantirishda kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv, statistik tahlil, solishtirma tahlil, ilmiy abstraksiya



usullaridan foydalanildi. Masalan, xalqaro miqyosda yashil ish o'rinlari tashkil etishda qayta tiklanuvchi energiya tarmoqlarining statistik ma'lumotlari va yetakchi mamlakatlarning ko'rsatkichlari statistik hamda solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan holda o'rganildi. Shuningdek, O'zbekistonning barqaror rivojlanish istiqbollari va mamlakatimizda yashil ish o'rinlari tashkil etish imkoniyatlari ilmiy abstraksiya usullari orqali o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


"Yashil iqtisodiyot" – bu kam karbonli, resurslardan samarali foydalanadigan va ijtimoiy jihatdan inklyuziv (har bir inson uchun imkoniyat yaratuvchi) iqtisodiyotdir. Yashil iqtisodiyotda ish bilan ta'minlanish va daromad o'sishi ommaviy va xususiy investitsiyalar orqali amalga oshiriladi. Bu investitsiyalar karbon chiqindilarini va ifloslanishni kamaytiradi, energiya va resurslardan samarali foydalanishni oshiradi hamda biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo'qolishini oldini oladi [7].

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tishda inson kapitalini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. "Yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish aholini ekologik jihatdan to'g'ri yo'naltirish, resurslarni tejash, tabiatni asrashga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalarni yaratish va qo'llash imkoniyatiga ega kadrlarni tayyorlashni talab etadi [8].

Yashil ish o'rinlari atrof-muhitni saqlash, resurslardan samarali foydalanish va barqaror ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan ishlarni o'z ichiga oladi. Ular nafaqat ekologik jihatdan foydali, balki mehnat bozori uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va yashil texnologiyalar rivojlanishiga turtki beradi. Yashil ish o'rinlari – bu atrof-muhit sifatini saqlash, tiklash yoki yaxshilashga hissa qo'shadigan munosib ish o'rinlaridir. Ular an'anaviy sohalarda, masalan, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligida yoki yangi va rivojlanayotgan yashil sohalarda, masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarida amalga oshirilishi mumkin [9].

Yashil ish o'rinlarini tashkil etishning asosiy maqsadi – atrof-muhitni muhofaza qilish va tiklash, barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash orqali kelajak avlodlar uchun munosib va barqaror mehnat bozorini yaratishdir. Shu bilan birga, yashil ishlar energiya va resurslardan samarali foydalanishni oshiradi, chiqindilarni kamaytiradi va ekologik xavflarni minimallashtiradi. Yashil ish o'rinlari amalda quyidagi muammolarni hal etish uchun xizmat qiladi: energiya va xom ashyodan foydalanish samaradorligini oshirish; issiqxona gazlarini chiqarishni cheklash; chiqindilar chiqarish va atrof-muhitni ifloslantirishni minimallashtirish; ekotizimlarni himoya qilish va tiklash; iqlim o'zgarishlari oqibatlariga moslashish [8].

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) hisobotiga ko'ra, agar barqaror amaliyotlar joriy etilsa va izchil amalga oshirilsa, 2030-yilga borib dunyo miqyosida 24 million yangi ish o'rne yaratiladi. Bunday yondashuv millionlab insonlarga qashshoqlikdan chiqish va yaxshiroq turmush sharoitiga ega bo'lish imkonini beradi (1-rasm).




1-rasm. Qayta tiklanuvchi energiya tarmoqlarida yaratilgan yashil ish o'rinlari soni, 2013-2024-yillar, mln kishi [10].

Ushbu grafik ma'lumotlari qayta tiklanuvchi energiya sohasida bandlik nafaqat ortib borayotganini, balki ushbu sektor global iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan mehnat bozorlaridan biriga aylanganini ko'rsatadi.



Biroq, IRENA tashkilotining qayd etishicha, 2024-yilda rekord darajada yangi qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari ishga tushirilgan bo'lsa-da, bandlikning o'sish sur'ati avvalgi yillarga nisbatan sekinlashgan. Bu holat sanoatning yangi rivojlanish bosqichiga o'tayotganidan dalolat beradi. 2012–2024-yillar davomida qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi bandlik 7,3 milliondan 16,6 million kishigacha, ya'ni qariyb 2,3 baravar oshdi. Bu o'sish global energetika transformatsiyasining mehnat bozoriga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Ish o'rinlari sonining oshishiga quyidagi omillar sabab bo'lgan: dunyo bo'ylab quyosh va shamol elektr stansiyalariga investitsiyalarning keskin ortishi; ko'plab davlatlarda "yashil iqtisodiyot" siyosatining joriy etilishi; energiya xavfsizligini ta'minlash zarurati; uglerod emissiyasini kamaytirishga qaratilgan xalqaro majburiyatlar; ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish zanjirlarining kengayishi. Natijada nafaqat elektr energiyasi ishlab chiqarishda, balki uskunalar ishlab chiqarish, montaj, ekspluatatsiya, texnik xizmat ko'rsatish, ilmiy tadqiqotlar va logistika kabi yo'nalishlarda ham millionlab yangi ish o'rinlari yaratildi. IRENA hisobotiga ko'ra, kelgusida ish o'rinlari soni endi asosan energiya quvvatlarini kengaytirish hisobiga emas, balki malakali kadrlar tayyorlash, texnologik innovatsiyalar, mahalliy sanoat zanjirlarini rivojlantirish va inklyuziv mehnat siyosati orqali shakllanadi. Shu bois, qayta tiklanuvchi energiya sektori kelgusi o'n yilliklarda nafaqat ekologik barqarorlikni, balki iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish va sifatli bandlikni ta'minlovchi eng istiqbolli tarmoqlardan biri bo'lib qoladi (2-rasm).



2-rasm. Mamlakatlar kesimida qayta tiklanuvchi energiya sektorida yaratilgan yashil ish o'rinlari soni, 2024-yil, mln [10].

Ushbu jadvaldan bir nechta muhim xulosalar kelib chiqadi. Xitoy 7,287 mln ish o'rni bilan dunyodagi barcha qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi ish o'rinlarining 43,9 % ini o'zida jamlagan. Bu uning quyosh panellari, shamol turbinalari, batareyalar va boshqa uskunalarini ishlab chiqarish bo'yicha global yetakchi ekanligini ko'rsatadi.


Yevropa Ittifoqi 1,795 mln ish o'rni bilan uchinchi o'rinda turadi. Bandlik asosan shamol energetikasi, quyosh energetikasi, issiqlik nasoslari va bioenergetika sohalarida shakllangan.

Braziliya bioyoqilg'i (etanol) sanoati hisobiga 1,384 mln ish o'rni yaratgan bo'lib, bu mamlakatni qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi bandlik bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlaridan biriga aylantiradi.

Hindiston 1,281 mln ish o'rni bilan quyosh energetikasi va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish siyosati natijasida eng tez o'sayotgan bozorlardan biri hisoblanadi.

AQSh 1,136 mln ish o'rniga ega bo'lsa-da, ishlab chiqarishning muayyan qismi hali ham importga bog'liq. Shu sababli mamlakat sanoat siyosati orqali mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirishga e'tibor qaratmoqda.

2024-yil ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi ish o'rinlari geografik jihatdan notekis taqsimlangan. Eng katta ulush ishlab chiqarish va texnologik zanjirlar rivojlangan davlatlarga to'g'ri keladi. Xitoy yakka o'zi global bandlikning deyarli yarmiga egaligi bilan ajralib turadi. Yevropa Ittifoqi, Hindiston va Braziliya esa faol sanoat siyosati, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va qayta tiklanuvchi energiyaga investitsiyalarni oshirish orqali yuqori bandlikka erishgan. Bu tajriba boshqa davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham "yashil" iqtisodiyot va bandlikni rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyatga ega (3-rasm).



3-rasm. Qayta tiklanuvchi energiya sektorida texnologiyalar bo'yicha yaratilgan yashil ish o'rinlari, 2023-2024-yillar, mln. kishi [10]

Grafik tahliliga ko'ra, quyosh fotoelektrikasi eng yirik bandlik manbai bo'lib qolmoqda. Mazkur tarmoqda ish o'rinlari soni 2023-yildagi 7,107 million kishidan 2024-yilda 7,237 million kishiga yetgan. Bu umumiy qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi bandlikning qariyb 43,6 % ini tashkil etadi. IRENA ushbu ustunlikni quyosh panellari ishlab chiqarish hajmining keskin ortishi, yangi elektr stansiyalarining ishga tushirilishi hamda ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi bilan izohlaydi. Ayniqsa, quyosh panellari ishlab chiqarishning katta qismi Osiyo mamlakatlarida, xususan, Xitoyda jamlangani ushbu tarmoqning jadal rivojlanishiga asosiy omil bo'lgan.

Ikkinchi yirik yo'nalish suyuq bioyoqilg'i bo'lib, unda bandlik 2,803 milliondan 2,637 million kishiga kamaygan. Ushbu pasayish ayrim mamlakatlarda bioyoqilg'i ishlab chiqarish hajmining qisqarishi va qishloq xo'jaligi xomashyosiga bo'lgan talabning o'zgarishi bilan bog'liq. Shunga qaramay, bioyoqilg'i sektori qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi bandlikning qariyb 16 % ini tashkil etib, ayniqsa, Braziliya va Indoneziya kabi davlatlarda qishloq hududlari iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutmoqda.

Gidroenergetika uchinchi yirik tarmoq bo'lib, undagi bandlik 2,324 milliondan 2,264 million kishiga biroz kamaygan. Bunga yangi yirik gidroelektr stansiyalar qurilishining sekinlashgani sabab bo'lgan. Biroq mavjud gidroelektr stansiyalarini ekspluatatsiya qilish, rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish ishlari ushbu tarmoqda yuqori bandlikni saqlab qolmoqda.

Shamol energetikasi esa ijobiy o'sish sur'atini namoyon etgan. Ish o'rinlari soni 1,457 milliondan 1,921 million kishiga oshgan bo'lib, bu barcha texnologiyalar orasida eng sezilarli o'sishlardan biridir. Bu natija, ayniqsa, dengizdagi (offshore) shamol elektr stansiyalarining kengayishi va shamol turbinalari ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan bog'liq.

Boshqa texnologiyalar orasida qattiq biomassa sektori 765 mingdan 734 ming kishiga kamaygan bo'lsa, quyosh issiqlik tizimlari 681 mingdan 591 ming kishiga pasaygan. Aksincha, issiqlik nasoslari (375 mingdan 388 ming kishiga), biogaz (316 mingdan 332 ming kishiga) hamda geotermal energetika (160 mingdan 161 ming kishiga) kabi yo'nalishlarda bandlik biroz oshgan. Konsentrlangan quyosh energetikasi ham 183 mingdan 186 ming kishiga o'sgan bo'lsa, chiqindidan energiya ishlab chiqarish va okean energiyasi sohalari umumiy bandlikda juda kichik ulushni egallaydi.

O'zbekistonda 2019–2030-yillar oralig'ida yashil iqtisodiyotga o'tish rejasi mavjud. U energetika, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa bir qancha sohalarni qamrab oladi. Bu esa yashil ish o'rinlari uchun qonuniy asos yaratadi. Garchi bu g'oya bundan ham kengroq bo'lsa-da, asosiy e'tibor qayta tiklanuvchi energiya manbalariga qaratilganga o'xshaydi. Mamlakatda 300 kundan ortiq quyoshli kunlar bo'ladi, shuning uchun quyosh va shamol eng oson yo'l kabi ko'rinadi. Ular Buxoro, Navoiy va boshqa bir qancha viloyatlarda yirik loyihalarni boshladilar. Ushbu stansiyalar qurilish, obyektlarni ishlatish va jihozlarni ishga tushirish bo'yicha ishlarni olib boradi. Panel va qismlarni xorijdan sotib olish o'rniga mamlakat ichida ishlab chiqarish ham yaxshi maoshli zavod ish o'rinlarini yaratishi mumkin. Boshqa sohalarda ham o'zgarishlar ko'p. Bugungi kunda binolar yaxshi izolyatsiya va energiya auditiga muhtoj. Avtomobillar asta-sekin elektr transportiga aylanmoqda, shuning uchun ta'mirlash ustaxonalari yangi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Qishloqlarda suvni kamroq ishlatadigan organik usullar va tizimlar yangi ish o'rinlarini yaratishi mumkin. Chiqindilarni saralash va uning bir qismini energiyaga



aylantirish bir vaqtning o'zida ifloslanishni kamaytirishga yordam beradi. Suvni kuzatish va tomchilatib sug'orish tizimlari foydali ko'rinadi, lekin ular haqiqatan ham qancha barqaror ish o'rinlari yaratishi mumkinligini aytish qiyin. Bu borada qilinadigan ishlar bor.

Umuman olganda, O'zbekiston tabiiy resurslar salohiyati, davlat siyosati va xalqaro investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari jihatidan yashil ish o'rinlarini rivojlantirish uchun qulay sharoitga ega. Energetika, sanoat, transport, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmatlar sohalarida yashil texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sish, eksport salohiyatini oshirish va yuqori sifatli, raqobatbardosh ish o'rinlarini yaratishning muhim omiliga aylanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada yashil ish o'rinlarining umumiy nazariy tahlili, asosiy xususiyatlari, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi yashil ish o'rinlarining bugungi kundagi holati va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilindi. Global iqtisodiyotda yashil ish o'rinlarini tashkil etishda yetakchi mamlakatlarning asosiy jihatlari va istiqbollari IRENA tashkilotining hisobotlari asosida o'rganib chiqildi. Jumladan, O'zbekistonda yashil iqtisodiy rivojlanishning istiqbollari va yashil ish o'rinlari yaratishda yuqori salohiyatga ega tarmoqlar ko'rib chiqildi.

Maqolada olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarni umumlashtirish mumkin.

Qayta tiklanuvchi energiya sektori yashil ish o'rinlarini tashkil etishda so'nggi yillarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xitoy dunyoda yangi yashil ish o'rinlari yaratishda yetakchi mamlakat hisoblanadi. Bundan tashqari, AQSH, Braziliya, Hindiston va Yevropa Ittifoqi hissasiga butun dunyoda yaratilgan qayta tiklanuvchi energiyaga oid yashil ish o'rinlarining 80 % ga yaqin qismi to'g'ri keladi. Bu esa boshqa mamlakatlardagi mavjud salohiyatning to'liq amalda qo'llanilmaganligini va kelajakda bu ko'rsatkichning yanada ortish ehtimoli mavjud ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda qabul qilingan strategiyalar va rivojlanish tendensiyalari tahlili mamlakatimizda yashil iqtisodiyotning jadal sur'atlarda rivojlanayotganligini ko'rsatib berdi. O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya sohasida kuchli salohiyat mavjud va ushbu sohaning rivojlanishi yashil ish o'rinlarining ortishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, elektr avtomobillarining keng targ'ib etilishi va organik qishloq xo'jaligining rivojlanishi mamlakatda yashil ish o'rinlarini tashkil etish uchun qulay tarmoqlar hisoblanadi. Umuman olganda, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qulay muhit va hukumat qarorlari mujassamlashgan.

Maqolada olib borilgan tahlillar va kuzatuvlar asosida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni va, albatta, yashil ish o'rinlarini rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Ta'lim tizimida "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga oid fanlar va dasturlarni joriy etish. Shaxsiy so'rovnoma natijalariga ko'ra, 18–25 yoshdagi aholi o'rtasida "yashil iqtisodiyot" tushunchasi haqidagi qarashlar yuzaki mavqega ega, ya'ni so'rovnoma ishtirokchilarining 58 % i yashil iqtisodiyotni faqat agrar sohani rivojlantirish uchun mo'ljallangan deb hisoblaydi. Aholining ekologik savodxonligini oshirish yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Kelajak avlod "yashil" sektorlarda faoliyat olib borishi uchun ular yashil iqtisodiyot, uning asosiy tamoyillari va prinsiplari haqida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Asosiy ma'lumotlar bazasi va "yashil xarita"ni yaratish. Yashil ish o'rinlarini samarali rivojlantirish uchun mukammal ma'lumotlar bazasi, ushbu ma'lumotlar asosida yashil ish o'rinlari xaritasi va monitoring tizimini yaratish lozim. Avvalo, mamlakat milliy yashil ish o'rinlarini xaritalashni amalga oshirib, qaysi sohalar, masalan, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish, suv samaradorligi va barqaror qishloq xo'jaligi rivojlanishi kutilayotganini hamda ularda qaysi kasblar va malakalar talab qilinishini aniqlashi kerak. Amalga oshirilayotgan va rejalashtirilayotgan investitsiyalar asosida kelajakdagi ish o'rinlariga bo'lgan talabni hududlar bo'yicha baholash va inklyuzivlikni ta'minlash muhimdir. Bu esa malaka yetishmovchiligining oldini olish va o'quv dasturlarini yo'naltirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini qabul qilish to'g'risida". PQ-4477-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida". PF-21-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-213-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6956101>



4. Winter J., Moore M. C. The “Green Jobs” Fantasy: Why the Economic and Environmental Reality Can Never Live Up to the Political Promise // The School of Public Policy Publications. – 2013. – Vol. 6, No. 31. – 32 p. – DOI: 10.55016/ojs/sppp.v6i1.42444.
5. Hendrix L., Goldberger N., Ladislav S. Understanding “Green Jobs”. – Washington, D.C.: Center for Strategic and International Studies (CSIS), 2010. – 26 p.
6. Boromisa A.-M., Tišma S., Ležaić A. R. Green Jobs for Sustainable Development. – London; New York: Routledge, 2015. – 210 p. – (Routledge Studies in Ecological Economics). – ISBN 978-0-415-74774-5.
7. United Nations Environment Programme (UNEP). Green Economy. <https://www.unep.org/regions/asia-and-pacific/regional-initiatives/supporting-resource-efficiency/green-economy>
8. Vaxabov A. V., Xajibakiyev Sh. X. Yashil iqtisodiyot: darslik / A. V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – 2-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan. – Toshkent: ZEBO PRINT, 2021. – 264 b.
9. International Labour Organization (ILO). World Employment and Social Outlook 2022: Greening with Jobs. – Geneva: International Labour Organization, 2022. https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/%40ed_emp/documents/publication/wcms_856666.pdf
10. International Renewable Energy Agency (IRENA), International Labour Organization (ILO). Renewable Energy and Jobs: Annual Review 2025. – Abu Dhabi: IRENA; Geneva: ILO, 2026. https://www.irena.org/-/media/Files/IRENA/Agency/Publication/2026/Jan/IRENA_SOC_RE_and_jobs_2026.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>